

BAHOUDDIN NAQSHBANDIY

*DTPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'limga
yo'naliishi 1-bosqich talabasi Jumayeva Mohinur*

Ilhom qizi . Abdughalimova Mohira Umidjon qizi .

Annatatsiya .

Ushbu maqolada **Bahouddin Naqshband (Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy)** hayoti va ijodi batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar ; donolik , odob-axloq , manaviyat , ilm , tafakkur .

Kirish . Bahouddin Naqshbandning birinchi piri — ustozi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni o'rribbosarlaridan bo'lmish Amir Sayyid Kulolga topshirdi. U tariqat bobida bilganlarini o'rgatib bo'lgandan keyin shog'irdiga ijozat beradi. Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo'lmish Qusam Shayx oldiga, Naxshab (hozirgi Qarshi) shahriga boradi. Uch oy undan ta'limga oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland bo'lgan, ayni chog'da Qusam shayx ham uni o'z o'g'lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqparda sufiylik bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. Ikkinci safarida Bahouddinga

shogirdi Xoja,MuhammadPorso hamrohlik,qilgan.Safardan,qaytishda Nishapur va Hirotda to'xtashgan, u yerlik mashhur avliyolar bilan uchrashib, suhbat qurbanlar.Naqshbandiy Hirotda biroz muddat yashagan. Keyin yana Buxoroga qaytib, qolgan umrini vatanida o'tkazgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati — kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlashni gunoh deb bilgan. Bahouddin Naqshband haqida, uning ta'lomi xususida, naqshbandiy shayxlar

to‘g‘risida talay asarlar yaratilgan. Birgina O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasining o‘zida naqshbandiyaga doir 195 kitob mavjud. Jumladan, Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning „Anisu-t-tolibiy va uddatu -s-solikiyn“ („Toliblar oshnasi va soliklar rahnomasi“) asarida (1383) Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat so‘zlaridan namunalar beriladi. Bu asar „Maqomati hazrati Xojai Naqshband“ nomi bilan yuritiladi. Shu muallifning 4 qismdan iborat „Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband“ („Xoja Bahouddin Naqshbandning ta’rif va tavsiflari“) asari ham bor. Bulardan tashqari Bahouddin Naqshbandning suyukli xalifasi [Xoja Muhammad Porso](#) yozib qoldirgan bir necha asar orqali valiylikning ta’rifi, Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari, uning suhbatlari va hikmatli so‘zлari bilan tanishish, [islom](#) aqidasi, ibodat, shariat va tariqat ahkomlaridan baxramand bo‘lish mumkin. “Ma’naviyatimizning buyuk siymolari” nomli loyihamizning navbatdagi ulug‘ zotlaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi Muhammad binni Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (ko‘proq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur). U zot 1318-yilda Buxoroning Qasri Hinduvon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) qishlog‘ida tavallud topgan. Chindan ham Said Jaloliddin va Bibi Orifa xonadonida tug‘ilgan farzand sharofati bilan qasri Hinduvon qishlog‘i Qasri Orifon deb shuhrat qozondi. Bahouddinning otasi to‘quvchi hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan. Uning taqdirida bobosining alohida xizmati bor. U so‘fiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg‘otdi. Birinchi piri – ustozи Xoja Muhammad Boboyi Samosiy edi. Keksa shayx yosh Bahouddin Naqshbandni tarbiyalashni o‘rinbosarlaridan bo‘lmish Amir Sayyid Kulolga topshiradi. Bobo Samosiy va Amir Sayyid Kulol yosh Bahouddinga oxiratdagi abadiy hayotning ma’nolarini, bu dunyo va u dunyodagi ruhiy, ma’naviy, ilohiy qadriyatlarni tushuntirdilar. Ustozlar Bahouddinga o‘zlik olamiga chuqur kirib, undagi ilohiy fazilatlarni kamol toptirishni o‘rgatdilar. Bahouddin Naqshband ilm istab, yassaviya tariqati shayxlarining mashhur vakillaridan bo‘lmish Qusam shayx oldiga, Naxshab hozirgi Qarshi shahriga boradi. Uch

oy undan ta’lim oladi. Bahouddin Naqshbandning bu pirga ixlosi baland bo‘lgan, ayni chog‘da Qusam shayx ham uni o‘z o‘g‘lidek bilib, muridiga cheksiz hurmati tufayli umrining oxirigacha Buxoroda yashab, shu yerda vafot etadi. Bahouddin Naqshband juda ko‘p shahar, mamlakatlarda, jumladan, Makka, Madina, Nishapur, Hirot, Marv, Samarqand, Nasafda bo‘lgan. Lekin qayerda bo‘lmasin hamma joyda Qur’oni Karim va Hadisi sharif kalomlarini xalqqa yetkazmoq, bid’atdan el ongini pokiza etmoq uchun sa’y-harakat qilgan. Hazrat Bahouddinning xalifasi Xo‘ja Muhammad Porsoning yozishicha, o‘z piri bilan birinchi marotaba muborak haj safariga chiqqanida Marvga borgan karvon ikkiga bo‘linadi. Bir guruh Mashhad, boshqasi Hirot tomon yo‘l olib, Nishopurda yana qo‘shilmoqchi bo‘lishadi. Hazrat Bahouddin Hirotga borib mavlono Zayniddin Abu Bakr Taybodiy bilan uchrashmoqni niyat qiladi, lekin Xoja Porso esa Mashhadga qarab yo‘l oladi. Xoja Porso keyin bu ishidan bir umr afsuslanib yurgan. Hazrat Bahouddin Mavlono Zayniddin Abu Bakr bilan uchrashadi. Mavlono hazratning ism-sharifini bilganidan so‘ng: “Biz uchun bir naqshe bog‘lang!” deb iltimos qiladi. Hazrat Bahouddin esa: “Kelibmizki, Sizdin naqshe eltgaybiz”, deb javob bergen. Naqshbandiya ta’limoticha, “naqsh band bir dil band”, ya’ni ko‘nglingda Alloh taolo zikrini naqsh ayla demakdur. Demak, naqshbandning ma’nosi yurakda Alloh nomini naqsh aylash hisoblanadi. Rivoyat qilinishicha, Hirot shohlaridan biri hazrat Bahouddin sharafiga ziyofat uyushtiribdi. Lekin shoh ziyofatiga qatnashgan Bahouddin dasturxonadan hatto non ushog‘ini ham olib og‘iziga solmabdi. Buning sababini shoh so‘raganda: “Janoblarining kasblari ne?”, debdi. Shoh hayron bo‘lib: “Hazrat, men shahanshohmen! Kasbim shu!” deb javob berganda, Xoja Bahouddin: “Shohlik kasb emas. Dovud alayhissalom temirchilik qilib kun ko‘rgan. Sizning dasturxononingizdagi noz-ne’matlar peshona teri bilan topilganda edi, halol hisoblanardi. Uzr, bizga bu dasturxonadan ovqat tanovvul qilmoq joiz ermas”, deb shoh ziyofatidan chiqib ketadi. Darvoqe, hazrat har muridga albatta bir kasbni o‘rganishni tavsiya etar ekan. Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharqshunos Y. E. Bertelsning yozishicha, Naqshband ta’limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlilik yotadi... Shunga binoan, Bahouddin Naqshband umri bo‘yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o‘z qishlog‘ida

unchalik katta bo‘lмаган yeriga bug‘дой ва мoshекар екан. U uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo‘yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo‘lмаган. Hazrati Naqshband butun umrini o‘z xohishi bilan faqirlik va yo‘qsillikda o‘tkazgan. U o‘z qo‘l kuchi bilan kun ko‘rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in’om etgan, hukmdorlardan doimo o‘zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon ta’magirlilik qilib yashamagan.Naqshbandiya tariqati Qur’oni Karim va hadisi sharifdagi ta’limotga asosan shakllangan. Tariqat pirlarining asosiy maqsadi – payg‘ambar alayhissalomning sunnatlarini qayta tiriltirish. Ikkinchi vazifalari esa bid‘at va xurofotga qarshi kurashish.Bahouddin Naqshband xalq orasida “Balogardon” (ya’ni xalq orasida balo-qazoni daf qiluvchi) unvoni bilan ham mashhur. O‘z ta’limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abduholiq G‘ijduvoniy nazariyalariga asoslangan. Ta’limotining asosida “Dil-ba yor-u dast-ba kor” (“Ko‘ngil Xudoda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘lavversin”) degan shior yotadi.Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo‘lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo‘tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko‘ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo‘l esa ish-mehnat bilan band bo‘lavversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo‘l siltamay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g‘oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’miladi.Hazrat Bahouddin “Hayotnama”, “Dalekul oshiqin” nomli kitoblar muallifidir.Hazrat Bahouddinning birinchi xalifalari Alouddin Attor, ikkinchi xalifalari Xoja Muhammad Porso (1419-yil vafot etgan) hisoblanadi. Bu zoti sharifning ismlari Muhammad ibn Muhammad al Hofiz al-Buxoriyidir.

Xoja Alouddin G‘ijduvoniy uchinchi xalifalari hisoblanadi. Shayx Pirmastiyl, Xoja Abul Qosim Buxoriylar Bahouddinning as’hoblaridirlar. Zamonasining ulug‘laridan bo‘lgan Mavlono Muhammad Miskinning aytishicha, Hazrat Bahouddin vafotidan bir kun oldin muridlarining hammasini Xoja Muhammad Porsoga tobe’ bo‘lishini vasiyat qilgan.

XULOSA .

Xulosa qilib aytganda Naqshabandi uchta qo'shimcha qoidalarni qo'shib, buyurtma qoidalari asosida o'z buyrug'ini asos solgan. U salbiy dindorlik, baland zikr va qirq kunlik ro'za tutishning soddaligi tarafdoi edi. Uning ta'limotining asosiy printsipi "Dil ba eru dast ba kor" - "Alloh bilan yurak, ishda qo'llar" edi. Uning ta'limotiga ko'ra, Allohnin anglash qalb bo'lsa-da, qo'l har doim ish bilan band bo'lishi kerak. Buyurtma belgisi ichida Allah so'zi bo'lgan yurak edi. O'zbekistonda Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi 1993 yilda keng nishonlandi. Uning qabri unga tutash majmua bilan O'zbekistonda ziyyaratgohga aylangan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasida Bahouddin Naqshbandiy haqida 195 ta ilmiy maqola va kitoblar saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydyevori. – T.: “SHarq” nashriyot-matbaa kontsyernining Bosh tahririyati. 2004.
2. Qodirov B. «Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlar». T.: «O'zbekiston» - 2000.
3. B.Farbyerman. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. «Fan» nashriyoti 2007 yil.
4. Tolipov O'.Q., Barakayev M., SHaripov SH.S. Kasbiy pedagogika. – T.: TDIU, 2011 yil.
5. Sayidahmyedov N. Pedagogik texnologiyalar.-T.:Moliya, 2013 yil.
6. Sayidaxmyedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari.-T.: RTM. 2013 yil.